

## PRESUPPOZITSIYA IFODALOVCHI FONETIK, MORFEMIK, LEKSIK BIRLIKLER TASNIFI.

**Jonridova Sanobar**  
Tadqiqotchi-pedagog

**Annotatsiya:** Maqolada jahon va o'zbek tilshunoslarining presuppozitsiyaga doir qarashlari keltirilgan. Presuppozitsiya hosil qiluvchi vositalar, ularning matndagi xususiyatlariiga yanada aniqlik kiritilganligi bilan ahamiyatli sanaladi.

**Kalit so'zlar:** presuppozitsiya, implitsit, lingvistik, ekstralinguistik, paralingvistik.

Ma'lumki, presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo'lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslangan ko'rinishi hisoblanadi. Demak, lingvistik presuppozitsiyani gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asosli hisoblanadi. Ayrim tilshunoslar presuppozitsiyaning eksplitsit ifodasi mavjudligi haqida fikr yuritishadi. Haqiqatdan ham presuppozitsiya implitsit hamda eksplitsit usul orqali ifodalanishi mumkin. Ushbu fikr to'g'ri ekanligini G.D.Arkipkinaning tadqiqotlarida ham ko'rishimiz mumkin: gap strukturasiga o'zi yo'q. Presuppozitsiya gapning tashqi strukturasida implitsit va eksplitsit ifodasiga ega bo'ladi<sup>10</sup>. I.V.Samoylova ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi.<sup>11</sup>Xoang Fe esa presuppozitsiyani ifodaning implitsit mazmuniga tenglashtirib bo'lmasligini ta'kidlaydi.<sup>12</sup> Meni fikrimcha, presuppozitsiya hodisasini implitsit ko'rinishi ham mavjud, ya'ni u grammatik vositalarsiz ham ifodalanishi mumkin. Masalan, -Sen bugun bormaysan, uyda qolasan. – lii.. Ushbu misolda fonetik yo'l bilan ohang orqali presuppozitsiya ifodalanyapti. Ya'ni men ham boraman, borish navbati meniki, men bormasam bo'lmaydi kabi axborotlar sezilib turadi Bizningcha, tilshunos olim Z.Burxonovning presuppozitsiyaga oid ushbu fikrlari ushbu masalaga

<sup>10</sup> Arkipkina G.D. K voprosu ob ispolzovanii presuppozitsiy v semasiologicheskomanalize // Grammatika i semantika predlojeniya: Lingvisticheskaya issledovaniya. - M., 1984.

- B. 4-5.

<sup>11</sup> Samoylova I.V. Smysl vyskazivaniya kak sovokupnost propozitsionalnogo ipresuppozitsionalnogo znacheniy // Formalnyi i soderjatelnyi aspekty predlojeniya v germanskix yazykax: Mejvuz. sb. nauch. tr. - Gorkiy. 1988. - B. 49.

<sup>12</sup> Xoang Fe. Semantika vyskazivaniya // Novoye v zarubejnoy lingvistike. Vyp. XU1.- M., 1985. - B. 310..

oydinlik kiritadi. : presuppozitsiya gap tashqi strukturasida moddiy ko'rinishini to'liq namoyish qilmaydi. Ammo uning tashqi signalari – **ishora vositalari**, tabiiyki, sintaktik strukturadan o'rin oladi.Bu jihatdan qaraganda, presuppozitsiyaning emas, unga ishora qiluvchi til birligining eksplitsit ifodasi xususida fikr yuritish o'rinali.<sup>13</sup> Lingvistik presuppozitsiya asosiy hollarda tilda amal qiluvchi tejamkorlik tamoyili asosida yuzaga chiqadi.

O'zbek tilida presuppozitsiya hosil qiluvchi vositalarni lingvistik hamda ekstralolingvistik vositalarga ajratishimiz mumkin. Demak, "presuppozisiyaning shakllanishi va hukmning mantiqiy qatorlari paydo bo'lishida lisoniy birliklarning ta'siri katta. Nutqiy tuzilma tarkibidagi birliklar va ushbu tuzilmaning strukturaviy belgilari presuppozisiyaga oid ma'lumotni ifodalovchi vositalar xizmatini o'tashi" <sup>14</sup>ni pragmalingvist Sh.Safarov ham ma'qullaydi. Har qanday matn grammatik vositalarning umumiyligi yig'indisidan iborat bo'ladi. Shu bilan birgalikda har qanday axborot o'zining umumyashirin mazmuniga ham ega bo'lishi mumkin.

Lingvistik vositalar gap tarkibida faol ishtirok etsa, ekstralolingvistik vositalar esa kommunikatsiya jarayonida qo'shimcha vazifa bajarish uchun xizmat qiladi. Har bir propozitsiyada birdan ortiq presuppozitsiya mavjud bo'ladi va bu presuppozitsiyani yuzaga chiqarishda grammatik vositalar yordam beradi. Presuppozitsiya konteksda fonetik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik birliklarning ishorasi orqali anglashiladi.<sup>15</sup>

Leksik vositalar sifatida so'zning lug'aviy ma'nosi ham presuppozitsiya hosil qilishda muhim ekanligini aytib o'tish kerak. Presuppozitsiyani hosil qilishda nafaqat gapning, balki so'zning lug'aviy ma'nosi ham katta rol o'yndaydi. U.Rahimov omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari ham presuppozision tahlil etilsa, ayrim o'ziga xos qirralari ochilishini aytib o'tadi. N.D.Arutyunova bu borada quritmoq fe'lini misol keltirib, unda xo'llik ma'nosi anglashilib turilishiga ishora qiladi. A.Nurmonov uchmoq so'zini misol tariqasida keltirib, uning presuppozisiyasi Samolyotda keldim ma'nosiga teng: Men Toshkentdan Moskvaga uchdim<sup>16</sup>. Ushbu holatda presuppozitsiyalar so'zlarning shakl va muosabatiga ko'ra turlari omonimik, sinonimik, antonimik xususiyatlari ko'ra belgilanadi. Masalan, tirik so'zining gap tarkibidagi mazmunidan vafot etish to'g'risidagi presuppozitsiya anglashiladi. "..Soliho'ja Nurxonning 36ta joyiga pichoq urdi. 1-iyun kuni

<sup>13</sup> Burxonov Z.O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi.(presuppozitsion aspekt).-Toshkent, 2008. -B.8.

<sup>14</sup>Сафаров Ш.Кўрсатилган манба.2008.Б.114.

<sup>15</sup>Рахимов У.Тагмаъно ва пресуппозиция. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2005.№5.

<sup>16</sup>Нурмонов А. ва б.Кўрсатилган манба. Б.115.

Nurxonni dafn etdik. Agar tirk bo'lganida 74 yoshga to'lar edi..."<sup>17</sup> Bu yerda tirk so'zining inkori vafot etgan, gap ichidagi mazmunidan esa, vafot etgan mazmunidagi presuppozitsiya kelib chiqadi. Qo'shimcha tarzda, agar tirk bo'lganida o'z oilasi, farzandlari hatto yulduz bo'lishi ham mumkinligi to'g'risidagi axborot yashiringan. Bu borada U.Rahimov o'zining tadqiqotlarida quyidagi jumllalarni keltirib o'tadi: "presuppozitsiya bir so'zning o'zidan kelib chiqmaydi, balki o'sha so'zning gap ichidagi turli mazmuniy munosabatlardan kelib chiqadi."<sup>18</sup> Bunga istisno tarzida amaki so'zini oladigan bo'lsak, qarindosh, dadaga aka yoki uka ekanlik presuppozitsiyasi to'g'ridan to'g'ri anglashiladi. Oila so'zida esa u jamiyatning bir bo'g'ini ekanligi, uning tarkibi mavjud a'zolardan iboratliligi sezilib turadi. U.Rahimov o'zining tadqiqotlarida presuppozitsiya hosil qiluvchilari tarkibiga paralingvistik vositalarni ham kiritib o'tadi. Aslida bu vositalarni leksik vosita sifatida qarab tahlil qilsak ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekstralivingistik vositalarga turli situatsiyalar, paralingvistik vositalar kiradi. Masalan, *bosh irg'amoq*. Afsuslanmoq, inkor etmoq, achchiqlanmoq, achinmoq, kabi lug'aviy ma'nolarni ifodalaydi. Yana misol tariqasida qo'l ko'tarmoq: javob bermoq, urmoq kabi ma'nolar anglashiladi. "dadam o'midan sapchib turib ketdi. Mushtlarini onamga o'qtalib: bu gaplarni bir gapirding eshitdim, xotinjon, boshqa eshitmay, aks holda yaxshilab o'zingizni ham savodingizni chiqarib qo'yaman. Onam labini tishlagancha o'midan turib tashqariga chiqib ketdi."<sup>19</sup> Bu yerda labini tishlamoq paralingvistik vositasi orqali onaning qo'rquvi to'g'risidagi presuppozitsiya anglashilyapti.

- Kechirasiz, amaki!
- Topibsan amakingni!
- Kechirasiz...
- Tumshug'ingni ezib qo'yaman hozir?!
- Siz, tabiiyki gunohkorona bosh egasiz.<sup>20</sup>

Bosh egmoq—itaot qilmoq, bo'ysunmoq<sup>21</sup> degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu jumladan itaot etish yoki bo'ysunish emas, balki o'z obro'sini to'kmaslik uchun gap talashmaganlik, odob saqlaganlik to'g'risidagi ma'no aks etgan. Paralingvistik vositalar nutqda ifodalanmasada, presuppozitsiya hosil bo'lismida lug'aviy birliklarga qo'shimcha ma'no berishga xizmat qiladi. "Bekatga yetib kelgach, olomondan chetroqqa turib navbatdagi avtobusga sig'asizmi, yo'qmi, shuni

<sup>17</sup> Usmonov H. Taqdirimizni yoritgan quyosh.O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1987, 37-son. Toshkent. 1-bet.

<sup>18</sup> Rahimov U. o'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. Fan. Nomzd. ..dis. Avtoref. Samarqand

<sup>19</sup> Usmonov H. Taqdirimizni yoritgan quyosh. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1987, 37-son, 1-bet.

<sup>20</sup> O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1987, 46-son, 8-bet.

<sup>21</sup> Sh.Rahmatullayev. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati."

chamalaysiz. Kishilar dam soatiga, dam avtobusning yo'liga umidvor ko'z tikishadi. Soatingiz yo'q, noiloj yoninggizdag'i qizchadan soat nech bo'lganini so'raysiz. U lablarini buradi, soat esa naq burninggizni ostiga keladi."<sup>22</sup> Quyidagi matn bo'lagidan bir qancha presuppozitsiyalar keltirib chiqarish mumkin. Leksik presuppozitsiya labini burmoq frazeologizmi orqali bayon qilingan. Ya'ni bu yerdan qizchaning soati yo'q, bilmaslik, aytishni xohlamaganlik kabi yashirin ma'nolar mavjud. Soat naq burninggizni tagiga keladi jumlasidan esa, avtobusda odam ko'p ekanligi anglashiladi.

Presuppozitsiya fonetik birliklar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunda tovushlar cho'zib aytilishi yoki ohang orqali bayon qilinadi. Masalan, avtobusda ketayotgan birinchi kishi esa, oynadan tashqarini kuzatib ketarkan: "Yaxshilikni bilmaydigan bu qo'rs to'nkani qayerda ko'rganmana, "deb qo'ydi. So'ng hushiga kelganda yonidagi shеригдан so'radi: - Hozir Sabzazorni? – Sabzazor uch bekat narida qolib ketdi-ku. – Iyaaa!.. Keltirilgan matndagi presuppozitsiyalar: yo'lovchining manzildan o'tib ketganligi, afsuslanganligi, hayron qolganligi. Afsuslanganligi yoki hayron qolganligi to'g'risidagi axborot fonetik vosita ya'ni "iyaa..." jumlesi orqali ifodalangan.

"-Yo'q-e? – revizor ko'zoynagini yulqib olib, g'ilay ko'zini chaqchaytirdi.  
– Uning xotini bor edi-ku! O'zi bizga qarindosh... Ha-a! Hm-m... hay, choydan quying... Menga-ku birovning mo'yi ham kerakmas... Shu shopir bolaga... Bechora, xafa bo'ladigan bo'ldi-da." Ushbu muloqotda qo'llangan ko'p nuqta hamda tovushning cho'zib aytilishi, presuppozitsiyaga ishora qilyapti. Matnda bir qancha taxminlar chiqarib olsa bo'ladi: jumladan, ishonmaganlik, u bunday ish qila olmaydi, shopir bolaning boshiga musibat yog'ilgani kabi...

Presuppozitsiya hodisasini hosil bo'lishida morfemik vositalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Kech kuz. Muzdek izg'irin esib turibdi.<sup>23</sup> O'ta sovuq ekanligi to'g'risidagi presuppozitsiya –dek morfemasi orqali namoyon bo'lyapti.

"Shu deng shikoyat xatlar tarnovdagi suvday oqib oqib kelayapti. Oshkorlik deb og'zingga kelganini odamlarga yozaverarkanda! Ushbu misolda –day morfemasi xatni suv kabi tezlik bilan yog'ilib kelayotganini ifodalab kelgan. Yuqoridagi fikrlarni jamlab xulosa qilib aytganda, presuppozitsiya hosil qiluvchi barcha grammatik vositalar nutqiy faoliyatni mazmuniy tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, yuqorida keltirilgan bu fikrlar nisbiy. Pragmalingvistikarning obyekti inson omilidir. Muloqot jarayonida inson nutqini chegaralab bo'lmaydi. Har

<sup>22</sup> O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1987, 46-son, 8-bet.

<sup>23</sup> O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1987, 7-son. Toshkent.1-bet.

qanday nutq turli vaziyatlarda, turli turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Til va nutq doimiy rivojlanishda davom etar ekan, uning uning imkoniyatlari ham kengayib boraveradi.